

**QIPCHOQ DIALEKTIKASINING TARIXI, RIVOJLANISH
BOSQICHLARI, O'RGANILISHI VA FONETIK-MORFOLOGIK
XUSUSIYATLARI**

Abdisamatova Dildora Sobirovna

TerDPI Boshlang'ich ta'lim kafedrası o'qituvchisi

<tel:+998881600110>

[@gmail.com](mailto:)

Qaytarov Humoyun Akbar o'g'li

TerDPI Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada qipchoq lahjasining tarixi, keng tarqalishi, olimlar tomonidan o'rganilishi, rivojlanish bosqichlari, shu bilan birga fonetik va morfologik xususiyatlari keng yoritilgan.

Kalit so'zlar: Sheva, dialekt, lahja, qipchoq lahjasi, tarixi, tarqalishi, fonetik xususiyatlari, morfologik xususiyatlari.

Abstract: In this article, the history of the Kipchak dialect, its spread, its study by scientists, the stages of its development, as well as its phonetic and morphological features are covered in detail.

Key words: Dialect, dialect, Kipchak dialect, history, distribution, phonetic features, morphological features.

Аннотация: В данной статье подробно освещена история кыпчакского диалекта, его распространение, изучение учеными, этапы его развития, а также его фонетические и морфологические особенности.

Ключевые слова: Диалект, говор, кыпчакский диалект, история, распространение, фонетические особенности, морфологические особенности.

Ma'lumki o'zbek tili boshqa turkiy tillardan ko'p shevaliligi bilan alohida ajralib turadi. Sheva - [tilning fonetik](#), [grammatik](#) va lug'aviy jihatdan o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan eng kichik hududiy ko'rinishi bo'lib, u o'zbek tilining eng

kichik hududiy ko‘rinishlari hisoblanadi. Bir-biriga yaqin shevalar yig‘indisi lahjani hosil qiladi. Hozirgi o‘zbek tili esa uchta lahjaga ajratiladi ya’ni, qipchoq, qarluq va o‘g‘uz lahjalari. Ushbu lahjalar bir-biridan leksik, morfologik, fonetik jihatdan farq qiladi. G‘ozi Olim Yunusov ham o‘zbek shevalarini avvalo uch lahjaga ajratadi:

1. O‘zbek-qipchoq lahjasi;
2. Turk-barlos lahjasi;
3. Xiva-Urganch lahjasi.

O‘zbek-qipchoq lahjasi ya’ni qipchoq lahjasi 4 shevaga: a) qirq; b) joloyir-laqay; v) qipchoq; g) gurlan shevalariga ajratiladi.

O‘zbek tili qipchoq lahjasi geografik jihatdan Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Xorazm, Buxoro, Navoiy, Samarqand, Jizzax, Sirdaryo, Toshkent, Qashqadaryo, Surxondaryo, Namangan viloyatlari hamda qo‘shni Tojikistonning Qo‘rg‘ontepa, Turkmanistonning Toshovuz viloyatlari, janubiy Qozog‘iston va shimoliy Afg‘oniston hududlarida keng tarqalgan¹.

O‘zbek tilining qipchoq lahjasi bo‘yicha shu paytgacha Ye.Polivanov, I.Zarubin, A.Borovkov, K.Yudaxin, V.Reshetov, G‘.Olimov, N.Baskakov, F.Abdullayev, A.Ishayev, O.Madrahimov, X.Doniyorov, A.Nurmonov, M.Mirtojiyev, B.Jo‘rayev, N.Rajabov, S.Rahimov tadqiqot olib borishgan².

Qipchoq lahjasida so‘zlashuvchi xalqlar O‘zbekiston hududiga qadimgi davrlarda kelib joylashgan va o‘troq tarzda turmush kechirishgan. X. Doniyorov qipchoq o‘zbeklarining O‘zbekiston hududiga kirib kelishini uch davrga bo‘libko‘rsatadi:

Birinchi davr – eng qadimgi davrlardan tortib - XIII asrgacha bo‘lgan davr.

Ikkinchi davr – XIII asrning 20-yillaridan XIV asrning boshlarigacha bo‘lgan davr.

Uchinchi davr – XIV asrdan boshlanadi. Ma’lumki, bu davrda qipchoqo‘zbeklar yoppasiga O‘rta Osiyoga kelib joylashdi va ana shu davrdan boshlab, ular O‘rta Osiyoda turg‘un holda yashayotgan o‘zbeklar bilan har tomonlama aralashuvga o‘ta boshlaganlar³.

O‘zbek tili qipchoq shevalarining tahlili shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek tilining qipchoq lahjasi bugunga kelib to‘liq shakllangan va boshqa qipchoq tillari hamda shevalaridan farqlanuvchi xususiyatlar kasb etgan. Jumladan, o‘zbeklar bilan yagona lingvogeografik hududlarda yashab kelgan qozoq, qirg‘iz va qoraqalpoq vakillari tillaridan ham farqlanadi. Shu bilan birga, uzoqroq hududlardagi ayrim qipchoq tillari bilan umumiyliklarga ham ega.

O'zbek tili qipchoq lahjasining tarixi, rivojlanish bosqichlari, o'rganilishi va bu borada amalga oshirilgan izlanishlarni tahlil qilish tadqiqotlar yetarli darajada emasligini ko'rsatdi. Bu asosan qipchoq lahjasini tasniflashdagi yondashuvlarning turlicha ekani, ayrim hududlar ilmiy nazardan chetda qolib ketgani, aksariyat ishlarining obyektini belgilashda qipchoq tilida so'zlashuvchi etnoslarning shevalariga emas, hududiy jihatlariga ko'proq e'tibor qaratilgani bilan izohlanadi. Jumladan, Surxondaryo shevalarini o'rganishda Buxoro amirligi davrida viloyat hududida shakllangan qo'ng'iroq, juz va do'rman bekliliklarida bir-biridan farqlanuvchi shevalar shakllanganiga ahamiyat berilmagan. B. Karmishevaning ishlarida qipchoq shevalari tumanlar bo'yicha tasniflashga harakat qilingan.

Qipchoq lahjasining fonetik xususiyatlari shundan iboratki, bu lahjada singlarmonizm ya'ni unlilar ohangdoshligi qonuni to'liq amal qiladi. Hatto fe'llardagi yetakchi va to'liqsiz fe'ldan iborat fe'l shakli ham bu qonunga bo'ysunadi: bor ekan – **баракан** – baraqan, boribmi ekan- **барьппакан** – borippaqan, ko'p ekan – **кубикан**- ko'bikan, va boshqalar. Shuningdek, quyidagi fonetik hodisalar ham qayd etiladi:

- konstrat juft unlilar: **y/y** ~ ii/u, **e/o** ~ o/o, **и/ы** ~ i:/i:, **ь-ь** ~ i/i, **э/а(о)'** - a/a mavjud.
- so'z boshida **y** ~ **j** undoshi **дж** ~ **z** undoshiga o'tadi: yo'l ~ **джол** ~ *jol*, yamon — **джаман** ~ *jaman*;
- **г/г** ~ **g/y** undoshlari **й** ~ **j**ga o'tadi: yig'in - **джьйьн** ~ *jiyin*, tegdi - **тьйдь** ~ *tiydi*, sigir - **сьйьр** ~ *siyir*;
- unlilar o'rtasida **п** ~ **p**, **к** ~ **k**, **к** ~ **q** undoshlari jaranglashadi: gap ~ **гэбь** ~ *gabi*, ekin ~ **егьн** ~ *egin*, chiqin — **чьгьн** ~ *chiyin*;
- **x** undoshi **q** undoshiga o'tadi: xotin ~ **катын** ~ *qatin*, tuxum ~ **тукум** ~ *tuqum*, xayol ~ **кьйал** ~ *qiyal*, xat - **кат** ~ *qat*; aksincha **q** undoshi **x** undoshiga ham o'tadi: vaqt - **вахт** ~ *vaxt*, oq ~ **ох** ~ *ox*.
- so'z oxirida **k**, **q** undoshlari tushib qoladi: sariq ~ **сарь** ~ *sari*, kichik - **кьчь** ~ *kichi*;
- unli bilan boshlanadigan so'zlar boshida **h** undoshi ortadi: ayvon ~ **хайван** ~ *hayvan*, aqli ~ **х,акль** ~ *haqli*;
- so'z o'rtasida va oxirida **F~y**, **K~q**, **к~к** undoshlari vga o'tadi: og'iz ~ **авуз** ~ *avuz*, bog' ~ **бав** ~ *bav*, tog' ~ **тов** ~ *tav*, bo'yoq ~ **бойав** ~ *boyav*, ellik ~ **елув** ~ *eluv*.

Qipchoq lahjasining morfologik xususiyatlarini esa quyidagicha tahlil qilish mumkin:

qaratqich va tushum kelishiklari affiksida **n** undoshi sonor va jarangli undosh bilan tugagan so'zlarda **d**, jarangsiz undosh bilan tugagan so'zlarda **t** tovushlari bilan

almashadi: uyning ~ *уйдун* ~ *uydun*, otning ~ *аттѣн* ~ *attin*, ishni ~ *ѣштѣ* ~ *ishti*, gulni ~ *гулдѣ* ~ *guldi*;

- jo'nalish kelishigining belgisiz qo'llanishi xarakterli: armiyaga ketgan ~ *армыйѣ кеткѣн* ~ *armiya ketkan*, o'qishga bordi ~ *окув бордѣ* ~ *o'quv bordi*;
- kishilik olmoshlari jo'nalish kelishigi shakli *маган* ~ *mayan*, *саган* ~ *sayan*, *угон* ~ *uyan* shaklida qo'llanadi;
- so'zga ko'plik qo'shimchasi qo'shilganda, regressiv assimilatsiya yuz beradi: jigitlar ~ *дѣжѣгѣллѣр* ~ *jigillar*, atlar ~ *аллар* ~ *allar*;
- harakat nomi *-в/ув/ув* ~ *v/uv/iiv* affiksi bilan ifoda qilinadi: borish ~ *барувѣ* ~ *baruv*, kelish ~ *келувѣ* ~ *keluv*, qolish ~ *калувѣ* ~ *qaluv*;
- hozirgi zamon davom fe'li *-дѣжатѣр* ~ *jatir* affiksi (uning old qator varianti yo'q) bilan hosil qilinadi: boryapti ~ *барѣндѣжатѣр* ~ *barbpzatir*, ketyapti ~ *кетѣндѣжатѣр* ~ *ketipjatir*;
- kelasi zamon sifatdoshi *-тыан* ~ *t'ig'an* affiksi (uning ham old qator variant yo'q) bilan hosil qilinadi: keladigan ~ *келѣтъган* ~ *kelatig'an* - *kelatiyan*, boradigan ~ *баратѣган* ~ *baratiyan* - *baratig'an*;
- hozirgi-kelasi zamon fe'lining III shaxsida *-дѣ* ~ *di* affiksi qatnashmaydi: keladi ~ *келѣ* ~ *kela*, boradi ~ *барѣ* ~ *bara*;
- *билан* ko'makchisi - *мѣн/ман* ~ *men/man* tarzida sintetiklashadi: ishi bilan ~ *ѣштѣмѣн* ~ *ishiman*, oyog'i bilan ~ *айагѣман* ~ *ayag'iman*.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, bugungi kunda milliy tilimizning sofligini saqlash, uning lug'at boyligini oshirish eng dolzarb vazifaga aylangan. Shunday ekan, avvalo, tilimizning o'z qatlamini boyitishga yanada e'tibor qaratish zarur. Bunda boshqa turkiy tillarni va ularning shevalarini qiyosiy-tarixiy tilshunoslik nuqtai nazaridan o'zbek tili bilan qiyosiy o'rganish muhim o'rin tutadi. Shunday ekan, O'zbek tilining qipchoq lahjasini o'rganishga e'tibor qaratish o'rinli bo'ladi va bu o'zbek tilining keyingi rivojida muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Решетов В. В. Ўзбек шеваларининг классификацияси//Ўзбек тили ва адабиёти. – 1966. – №1. – Б. 3-14;
2. Юдахин К.К. Ўзбек ва уйғур халқлари тилларидаги яқинлик//Ўзбек тили ва адабиёт масалалари. – 1958. –№ 1. – Б. 31-35.;
3. Юнусов Ғози Олим. Ўзбек лаҳжаларининг таснифида бир тажриба. – Тошкент: Ўқувўздавнашр, 1937. – 84 б;

4. Абдуллаев Ф.А. Хоразм шевалари таснифи масаласи. Ўзбек диалектологиясидан материаллар. II. – Тошкент: Фан, 1961. – 351 б.;
5. Ишаев А. Манғит шевасининг баъзи бир фонетик хусусиятлари. Ўзбек диалектологиясидан материаллар. II. – Тошкент: Фан, 1961. – 465 б.;
6. Мадраҳимов О. Ўзбек тили ўғуз лаҳжасининг лексикаси. – Тошкент: Фан, 1973. – 117-б.;
7. Дониёров Х. Ўзбек халқининг шажара ва шевалари. – Тошкент: Наврўз, 2017. – 136-13-15 б.;
8. Нурмонов А. Ўзбек тили фонологияси ва морфонологияси. – Тошкент, 1990. – 45 б.
9. Миртожиев М.М. Ўзбек тили фонетикаси. –Тошкент: Фан, 2013. – 423 б.;
10. Жўраев Б. Юқори Қашқадарё ўзбек шевалари. – Тошкент: Фан, 1969. – 465 б.;
11. Ashirboyev Samixon. O‘ZBEK DIALEKTOLOGIYASI // darslik // T.: «NAVRO‘Z» nashriyoti 2016. - 136 b.
12. Egamov V. O‘zbek shevalarining sintaktik qurilishi // O‘zbek tili so‘zlashuv nutqi sintaksisi masalalari.S.,1973
13. R.Sayfullayeva, B.Mengliyev, G.Boqiyeva, M.Qurbonova, Z.Yunusova, M.Abuzalova “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” Toshkent - 2009;
14. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Tilshunoslik>
15. <https://azkurs.org/samarqand-davlat-universiteti-v6.html?>